

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)
Каланова Сабохат Мурадovна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. профессор (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраhon Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
2. Karimov Bobir JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
3. Mamatov Normurat IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
4. Rasulov Abdimumin SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
5. Xusanova Hayriniso IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
6. Abduxalilov Abdullo NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
8. Abdullayev Akmal O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
9. Хасанова Мавлюда СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
11. Алимухамедова Нодира ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
12. Tolipov Abdug‘affor VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
13. Berdimuratov Marat YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

14. Хамиджонов Умиджон	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
15. Ixtiyarov Farhod	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
16. Хасанова Мавлюда	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
17. Radjabova Aziza	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
18. Kalanova Sabohat	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
19. Ixomjon Xudayarov	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
20. Tagaymuratova Gulchehra	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
21. Jabborov Jaxongir	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
22. Ixtiyarov Farhod	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
23. Xasanov Sharofidin	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
24. Nurulloev Shahriyor	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
25. Аликариев Нуриддин	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
26. Alikariyeva A'loxon	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Kalanova Sabohat,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrasida dotsenti
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
e-mail: sabo_77@mail.ru

JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099567>

ANNOTATSIYA

Maqolada avlodlararo munosabatlar muammosining metodologik va nazariy jihatlarini ko‘rib chiqilgan. Mazkur muammoning dastlabki metodologik asosi sifatida Platonning nasli odam g‘oyasi, shuningdek faylasuflarning inson va jamiyat o‘rtasidagi asosiy, bog‘lovchi bo‘g‘in sifatidagi nasli butunlikka oid qarashlari olingan. Faylasuflar M.Xaydegger va YE.Gusserlning eski va yangi avlodlar o‘rtasidagi, kattalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar yoki generativ munosabat sifatida talqin etiladigan intersubektiv tajriba g‘oyasi tahlil etilgan. O‘zgaruvchan muhitda jamiyat ijtimoiy munosabatlarning tiklanishi va o‘zgarishi, uzluksizlik va bo‘linish, an’anaviylik va innovatsiya tushunchalariga asoslangan tarixiy jarayon sifatida qarashni talab qiladi. Shu ma’noda avlod uzoq muddatli, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadigan ijtimoiy o‘zgarishlarning ko‘lami va yo‘nalishini o‘lchash uchun tarixiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. “Yangi “biologik mavjudotlar”ning ketma-ket paydo bo‘lishi muqarrar ravishda to‘plangan madaniy boyliklarning ma’lum darajada yo‘qolishiga olib keladi; lekin, boshqa tomondan, faqat kerak bo‘lganda erishilgan “yangi tanlov” qiladi. Bu bizni to‘plangan narsalarni qaytadan baholashga undaydi va endi kerak bo‘lmagan narsalarni unutishga va erishilmagan narsaga intilishga o‘rgatadi”. Avlodning “qadam”i jamiyatning o‘tmishdagi holati va uning kelajakka harakati o‘rtasidagi muvozanatni aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: generativ munosabat; intersubektiv tajriba; differentsiatsiya; avlodlararo munosabatlar; avlodlararo munosabatlar psixologiyasi; nasli butunlik.

Каланова Сабохат,

доцент, Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека кафедры «Социология»
доктор философии по социологическим наукам, PhD
e-mail: sabo_77@mail.ru

СОЦИАЛЬНАЯ СТРУКТУРА МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются методологические и теоретические аспекты проблемы межпоколенческих отношений. Первоначальная методологическая основа этой проблемы заключалась в представлении Платона о происхождении человека, а также в взглядах русских

философов на наследственное единство человека и общества. Проанализирована идея философов М.Хайдеггера и Е.Э.Гуссерля об интересубъективном опыте, который трактуется как взаимоотношения между старшим и новым поколением, между взрослыми и детьми или как взаимоотношения между ними. В условиях перемен общество требует, чтобы оно рассматривалось как исторический процесс, основанный на принципах возрождения и изменения социальных отношений, непрерывности и разделения, традиционности и инноваций. В этом смысле поколение служит историческим инструментом для измерения масштабов и направлений социальных изменений, которые со временем меняются. «Последовательное появление новых «биологических существ» неизбежно приведет к определенному количеству накопленных культурных ценностей; но, с другой стороны, он делает «новый выбор», который достигается только тогда, когда это необходимо. Это побуждает нас переоценивать собранное и учит забывать то, что уже не нужно, и стремиться к тому, чего не достигается». Этот «шаг» поможет определить баланс между прошлым и будущим.

Ключевые слова: генеративное отношение; интересубъективный опыт; дифференциация; межпоколенческие отношения; психология межпоколенческих отношений; генеалогическая целостность.

Kalanova Sabohat,

Associate Professor, Mirzo Ulugbek National University
of Uzbekistan, Department of Sociology
Doctor of Philosophy in Sociological Sciences, PhD
e-mail: e-mail: sabo_77@mail.ru

SOCIAL STRUCTURE OF INTERGENERATIONAL RELATIONS IN SOCIETY

ABSTRACT

This article examines the methodological and theoretical aspects of intergenerational relations. The original methodological basis for this problem lay in Plato's understanding of human origins, as well as in the views of Russian philosophers on the hereditary unity of man and society. The article analyzes the ideas of philosophers M.Heidegger and E.E.Husserl on intersubjective experience, which is interpreted as the relationship between the older and the new generation, between adults and children, or as the relationship between them. In a context of change, society requires that it be viewed as a historical process based on the principles of the revival and modification of social relations, continuity and separation, tradition and innovation. In this sense, generation serves as a historical instrument for measuring the scale and direction of social change, which changes over time. «The successive emergence of new «biological beings» will inevitably lead to a certain amount of accumulated cultural values; but, on the other hand, it makes a «new choice», which is achieved only when necessary. This encourages us to re-evaluate what we've collected and teaches us to forget what's no longer needed and to strive for what's unattainable». This «step» will help determine the balance between the past and the future.

Key words: generative relationship; intersubjective experience; differentiation; intergenerational relations; psychology of intergenerational relations; genealogical integrity.

KIRISH

Jamiyat 'zgarib borayotgan sharoitda o'z-o'zidan ijtimoiy munosabatlarni tiklanish va o'zgartirish, vorisiylik va uzilish, an'anaviylik va novatorlik tushunchalari asosidagi tarixiy jarayon sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Bu ma'noda avlod uzoq muddatli, muayyan vaqt davom etadigan sotsial o'zgarishlar ko'lamini va yo'nalishini o'lchashning tarixiy vositasi vazifasini o'taydi. "Yangi "biologik mavjudodlar"ning ketma-ket paydo bo'lishi yig'ilayotgan madaniy boylidagi ayrim yo'qotishlarga muqarrar olib keladi, ammo boshqa jihatdan qaraganda, faqat shugina zarurat bo'lganda erishilganning "yangi seleksiya"sini mumkin qiladi.

Bu biz to'plaganlarni qayta baholashga rag'batlantiradi va keraksiz bo'lib qolgan narsalarni unutishni o'rgatadi hamda erishilmagan narsalarga intilishga da'vat etadi" [1]. Avlod "qadami" jamiyatning o'tmishdagi holati va uning kelajak sari harakati o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlashga yordam beradi.

ASOSIY QISM

Avlodlar muammosining hozirgi kundagi talqini. Avlod tushunchasi kundalik hayot sathidagi ijtimoiy fikr oson foydalanadigan sotsial tushunchalar qatoriga kiradi. Bugungi kunda bunday qiziqishning keskin o'sishi kuzatilmoqda. U kundalik tafakkurda jiddiy tahlil etiladi, undagi "yangi avlod" tushunchasiga murojaatni sifat jihatdan allaqanday "o'zgacha" generatsiyalarning kelishini his etish yoki kutish va paydo bo'layotgan avlodlarda allaqanday innovatsionlikni izlash sifatida talqin etish mumkin.

Ilm sohasida ham avlodlar konsepsiyasiga qiziqishning qayta tiklanishini va avlodlararo o'zgarishlar muamosiga zamonaviy pozitsiyadan qayta ifodalashga intilishni kuzatish mumkin. Shuning uchun avvalambor avlod tushunchasining o'ziga aniqlik kiritish muhimdir.

K.Manxeym tomonidan kiritilgan avlod sotsiologik tahlilining umumiy prinsipi avlodlarga umumiy tarixiy lokallashuvi va shunga muvofiq bunday vaziyatlarda yashashning umumiy tarixiy tajribasiga ega bo'lgan avtonom sotsial birliklar sifatida yondoshishdan iborat. K.Manxeym, shuningdek, mazkur guruhning tarkibiga kiruvchi alohida guruhlarning masalan, avlodning uzagi, autsayderlar, avlod ichidagi madaniy va siyosiy ittifoqlar, alohida guruhlarning avlod bilan identifikatsiyalashgani darajasi tajribasi sifatidagi avlodning ichki differentsiyalashganini ham farqlagan. K.Manxeym fikriga ko'ra, sotsial o'zgarishlarga avlodlararo yondoshuvning murakkabligi shundaki, tinimsiz almashinib kelayotgan avlodlarning formal chegaralarini, shuningdek, avlodlararo farqlanishlarning boshqa turdagi sotsial differentsiyalar bilan munosabati ko'lamini belgilash ancha qiyin [2]. Uning uchun eng muhimi – avlodiy birlikning shakllanishi mexanizmini ochish hamda avlodiy birdamlik (biz buni "jamoaviy taqdir" deb ataymiz) g'oyasini tadqiq etish bo'lgan. K.Manxeym tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy-tarixiy jarayonni ketma-ket paydo bo'ladigan avlodlarning almashinuvini sifatida sotsiologik tadqiq etish usuli bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan, garchi empirik tadqiqotlar nazariy modelni sotsial voqelik bilan muvofiqlashtirishning murakkabligidan dalolat beradi [3].

Avlodlarga oid zamonaviy konsepsiyaning shakllanishi sotsiologik konsepsiyalarda ham o'z ifodasini topgan ikki sotsiologik tendensiya bilan bog'liq. Bir tomondan, inson hayotining uzayishi va aholining "qarishi" inson hayotini alohida yosh bosqichlari sifatida emas (yoshlar sotsiologiyasi, keksalar sotsiologiyasi shu bilan bog'liq), bir yosh bosqichidan boshqasiga o'tishning yagona jarayoni sifatida tushunish hamda bir avlod hayotiy tajribasi dinamikasini o'n yilliklar davomida kuzatishga olib keldi. Shu bilan birga avlod nafaqat yoshlik chog'idagi tarixiy lokallashuvi bilan, balki hayot sikllarining keyingi bosqichlarida qanday rivojlanganligi bilan ham belgilanadi. Tabiiyki, avlodning keksalikkdagi hayotiy faoliyati uning o'smirlik chog'idagi sotsial amaliyotidan farq qiladi. Bu holat amerikalik olim G.Elder (G.Elder) qo'llagan va keng e'tirof etilgan hayot yo'li (life course) konsepsiyasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi [4].

Bunday yondoshuvda asosiy diqqat-e'tibor avlodni butun hayot yo'lini bosib o'tish mobaynida va bir bosqichdan keyingisiga o'tish tarzida o'zgarib boradigan yagona hayotiy tajribasi sifatida o'rganishga qaratiladi. Bunda o'smirlikdan (birlik sifatidagi avlodning shakllanishida eng muhim "formativ" davr sifatida, chunki keyingi bosqichlar birlamchi tipik xususiyatlarni faqat kuchaytiradi yoki bo'shashtiradi) keksalikkacha bo'lgan hayot yo'li dinamikasi avlodlar konsepsiyasini shakllantirishda markaziy tushunchaga aylanadi Sotsial birlik sifatidagi avlod konsepsiyasiga oid bahslarning boshqa yo'nalishi zamonaviy jamiyatdagi individuallashuv jarayonlarining tezlashishi bilan bog'liq. Mazkur yondoshuv bo'yicha bir avlod vakillarining sotsial tanlash imkoniyati va hayoti yo'lining variativligi kengaygan sari avlodning ichki differentsiyalashuvi jarayoni ahamiyatliroq bo'lib boradi (avlodning biografiklashuvi).

Aslida avlodning ijtimoiy guruh sifatida birlashuvi va ijtimoiy alohidalashuvi faqat ta'lim tizimi doirasida (qisman armiyada)gi birlamchi ijtimoiylashuv bosqichida sodir bo'ladi. Undan so'ng avlodiy birlikning ahamiyati kamayib, avlodning hayotiy yo'llari borgan sayin

biografiyalashib boradi. Shuning uchun avlodning ichki birlashuvi yoki birdamligi muammosi borgan sayin bahsli bo‘lib boradi, avlodiy o‘xshashlikning ahamiyati borasida shubha paydo bo‘ladi. Shunday qilib, hozirgi tushunchadagi avlod o‘zining tarixiy lokallashuvi xususiyatlari va shu bilan bog‘liq tarzda o‘xshash tajribasi va individual hamda tizimli satxdagi umumiy xususiyatlari, hayotiy yo‘li konfiguratsiyasining umumiyliги bilan birlashtirilgan ijtimoiy guruhni anglatadi. Avlodning tizim sathidagi o‘ziga xosligi mazkur tizim doirasidagi guruhii va individual sathdagi keng modifikatsiyalar imkoniyatini bildirmaydi va bu holat post-modernistik loyiha doirasida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Avlod tushunchasi yosh kogortasi tushunchasi bilan muvofiq kelmaydi. U bir necha yosh kogortalarining guruhini ifodalaydi, chunki barcha yosh kogortalari ham avlodiy birlikni tashkil etavermaydi. Bu mazkur maqola doirasida quyiroqda aks ettiriladi.

Avlodlarni talqin etishdagi nazariy yondoshuvlar sotsiologiyada g‘arb mamlakatlaridagi alohida yosh kogortalarining xatti-harakatlari namunalariга oid uzoq muddatli (statistik va sotsiologik) ma‘lumotlarning jamlanishiga qarab bir necha bor empirik testlangan (R.Inglehart, T.Nareuyen, M.Suayer), ammo ular avlodiy “izchillik” mexanizmini ziddiyat yoki avlodlarning uzilishi tushunchalarida tushunishga yordam bermadi. Umumman olganda, g‘arb jamiyatida o‘nlab yillar davomida avlodlararo ziddiyatlarning bo‘lmagani tadqiqotchilarning o‘z e‘tiborlarini “avlodlar ziddiyati” tushunchasidan “avlodlar munosabati” yoki “avlodlar shartnomasi” tushunchasiga ko‘chirishiga sabab bo‘ldi. Bu degani, gap avlodlarning ziddiyatlaridan ko‘ra ko‘proq ularning o‘ziga xosligi va avlodlararo munosabatlar haqida borayotganidan dalolat beradi.

G‘arb sotsiologiyasidagi tilga olingan avlodiy muammolarning rivojlanishiga oid umumiy tendensiyalardan so‘ng muammoning jamiyatdagi o‘ziga xos jihatlariga murojaat etish qiziqish uyg‘otadi. Zero, jamiyatda avlodlarning hayot yo‘llarini biografiyalashuvi va avlodlararo munosabatlarning zaiflashishi tendensiyasi kuzatilmaydi. Ko‘proq teskari holatni ko‘rish mumkin: O‘zbekiston sotsiologiyasida yosh, askriptiv statusning ko‘rsatkichlaridan biri sifatida, hozirgi zamon jamiyatida ijtimoiy differentsiatsiyasining eng muhim kriteriyalaridan birini tashkil etadi. Tarixiy avlodiy birliklar, ijtimoiy munosabatlarning an‘anaviy shakllaridan biri sifatida, O‘zbekistonda doim katta ahamiyatga ega bo‘lgan va shaxs identifikatsiyalashuvining birlamchi shakli bo‘lgan (urush davri avlodlari, urushdan keyingi avlodlar, qayta qurish davri avlodlari, mustaqillik avlodlari va b.).

Individual tanlash imkoniyati bo‘lmagan sovet tipidagi avtoritar jamiyatning o‘tgan o‘n yilliklari davomida bir avlod odamlarining “tarixiy taqdiri”ning “avvaldan belgilanganligi” qonuniyat bo‘lgan hayotning “boshqasi berilmagan” tamoyili asosida qurilishi. Individual taqdirning o‘z avlodining tarixiy lokallashuviga taqdiriy tobeligi rus tiliga o‘z ifodasini topgan. Rus tilida hayot yo‘lini ifodalovchi bitta so‘z bor – “taqdir” (sudba), masalan, ingliz tilida esa ikkita so‘z: “fate” (taqdiri azal, peshonaga bitilgani, qismatga yozilgani kabi ma‘nolarda) va “destiny” (oldindan belgilanganlik, yuklatilgan vazifa, chekiga tushgan, qur‘aga shu tushibdi kabi ma‘nolar) [6].

Buning uchun taajjublanadigan hech qanday asos yo‘q bo‘lib, unda avvalgi barcha o‘xshashliklar tufayli sodir bo‘lgan inqirozlar davridagi ijtimoiy ongning an‘anaviy “o‘z davri avlodlari a‘zolari bilan birdamlik” eng qimmatli tushunchalardan biri bo‘lib qoladi. Bu ijtimoiy ongda o‘z ahamiyatini saqlab qolgan yirik sotsial guruhlar bilan yagona o‘xshashlikdir, garchi, u so‘nggi yillarda ommalashib borayotgan egoizm natijasida zaiflashib borayotgan bo‘lsada.

Zamonaviy sotsiologiyadagi “hayot yo‘li” konsepsiyasi jamiyatshunoslikka oid tadqiqotlarda hozircha ilmiy izlanish predmeti darajasiga ko‘tarilmagan bo‘lsada, tahmin qilib aytish mumkinki, unda avlodlarning ijtimoiy “keksayishi” jarayonlarini, yoki o‘rta avlodning qaysidir mavhum sotsial talablarini hisobga olinmaganligi natijasida kechayotgan “charchoqlilik” masalalarini o‘rganish har bir shart-sharoitlarda milliy xususiyatlar hisobiga sodir bo‘lishi mumkin. Garchi alohida hayot bosqichlari (bolalik, o‘smirlik, keksalik) muammolari mahalliy sotsiologiyada nisbatan izchil o‘rganib borilayotgan bo‘lsada [7], ushbu konsepsiya alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etsada, bizning mazkur maqolamizda tadqiqot vazifasi sifatida ilgari surilmaydi.

METODOLOGIYA

Yosh kogortalar differentsiatsiyasi. So'nggi o'n yil davomidagi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan jarayonlar avlodiy kogortalarning ancha tezlik bilan yangilanishiga va o'zlarini "bolalar" avlodi deb ataydiganlarning jiddiy ichki differentsiatsiyalashuviga turtki berdi. Tushunarliki, alohida sifatiy-farqli yosh kogortalarining aniq demografik chegaralarini belgilash ancha qiyin. Shunday bo'lsa-da, qiyosiy tahlil qilish maqsadida biz asosiy mezon – tuzilmaviy (formativ) davrlarga taqsimlab, uni tarixiy, o'ziga xos tajriba asosida shartli ravishda uchta yosh guruhlariga ajratdik: 1) XX asrning 60-yillarda tug'ilganlarga nisbat berilgan yosh kogortasi (sotsiologik adabiyotlarda "shestidesyatniki" deb nomlanib, koinotni zabt etilishidan ta'sirlanganlar avlodi ham deyiladi); 2) 70-yillar davri yosh kogortasi (sotsiologik manbalarda "turg'unlik davri" avlodlari deb nomlanadi); 3) 80-yillarning birinchi yarmi kogortasi (ilmiy manbalarda "sukut saqlash" davri avlodlari deb nomlanadi). Avlodlar almashinuvining ushbu formativ "sukunatli" davri 25 yillar davom etib, XX asrning o'ziga xos ijtimoiy fenomeni sifatida tarixda qoldi.

Bu davr avlodlarining o'z imkoniyatlarini namoyish etish borasidagi faoliyatini ta'kidlaydigan bo'lsak, ular sukut saqlagani holda, biz uchun hozirgi kundagi "ijtimoiy maydon"dan ko'ra sifatiy harakat qildilar. Ko'plab tadqiqotchilar bunga sabab sifatida koinotning zabt etilishi va uning uzoq 20 yillik inersiyasini ko'rsatadilar. Agar faqat O'zbekiston sharoitidan kelib chiqib misollar keltiradigan bo'lsak, ayna shu davrda teatr va kinodagi eng zo'r ssenariylar, madaniyat va san'atdagi bebaho asarlar, estrada va boshqa qo'shiqchilik turlarida kuylangan o'lmas ashulalar, nasr va nazmda yozilgan roman va she'rlar to'plamlari, arxitektura, haykaltaroshlik va rassomchilikdagi noyob durdonalarni yaratgan avlodlarni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Mustaqillik yillarining ilk 15-20 yilliklaridagi imkoniyatlarini yaratishda, bizningcha, aynan shu davr avlodlarining inersiyasi ustuvorlik qildi. Bunda tabiiyki 80-yillarning ikkinchi yarmida shakllangan qayta qurish avlodlarining ham roli beqiyosdir.

Qayta qurish davri yoshlari kogortasi. Bu davr o'zida 60-nchi yillarda tug'ilganlarni o'zida qamrab oladi. Ular "qayta qurish" davri yoshlari deb atalib, 1986-1992-yillari 18-30 yoshdagi kishilardan tashkil topganlar edi. Bu davrning shakllanishidagi formativlik juda ulkan geografik hududdagi to'liq axborot blokadasining olib tashlanishi sharoitiga to'g'ri keladi. Bu davr yoshlari o'z bolaligini o'zlaridan avvalgi "otalar" avlodi kabi sobiq ittifoq tuzumi sharoitida hayot kechirgan bo'lsalarda, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalaridagi kechgan davr qonunlaridagi sotsialistik loyihalar doirasida shakllangan "avlodlar vorisiyligi" batamom tanazzulga uchragan shart-sharoitlarda kechiradilar. Bu yosh kogortasining o'zagini yosh ziyolilar tashkil etib, ular o'z otionalari tasavvuridagi singari sotsializm davridagi "to'kinlik" nuqtai nazarni inkor etadilar. Bu davr avlodlari keyinchalik "qiyoslovchi avlod" sifatida tarix sahifalariga kiradilar. Boisi ikkita tuzum va ikkita shart-sharoitni ko'rish tarix sarhadlarida kam avlodlarga nasib etadi. Bir tomondan bu holat ushbu avlodlarga keng tafakkur qilish imkoniyatini bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'zlikni namoyon etishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

O'tgan asrning 80-yillaridagi sotsiologik tadqiqotlarda ushbu yosh kogortlari o'zlarining sotsialistik qadriyatlariga, undagi moddiy va sotsial imtiyozlarga nisbatan norozilik ifodalarini bildirganlar [8]. Ushbu kogortaning jamiyatga ijtimoiylashuvi (80-yillarning o'rtalaridan boshlab) qayta qurish jarayonlari davrida murakkabliklarni keltirib chiqaradi, boisi, ular bolalikdagi ilk ijtimoiylashuvning tez yakuniga yetib, o'smirlik ideallari shaklana boshlagan bir davrda o'ziga xos mutlaqo yangi, faol harakatlarda tanqidga uchragan mafkuraviy davrga to'g'ri keladi. Shu paytda bildirilgan fikr-mulohazalarda, yosh avlodning jamiyat hayotidagi qayta qurishni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi haqidagi qarashlar amalda o'z tasdig'ini topmadi.

Keyinchalik, 90- yillarning boshlarida (1991-yildagi yosh davrlari kogortasi shu yili 25-29 yoshdagilarga nisbat qilib olinadi) faol harakatda bo'lgan kogorta universitet ta'limini tamomlaganlar dunyoqarashi va tafakkuriga qarab belgilanadi. Bu avlod asosan kasbiy mehnat bilan shug'ullanib, avvalgi inersiya hisobiga, asosan davlat muassasalarida ishlardilar (tahminan 85%). Faoliyatdagi generatsiyaning deyarli uchdan bir qismini oliy ma'lumotli mutaxassislar tashkil etib, qolgan ikki qismini shu paytlarda hali bankrotlikka to'liq uchragan zavod-fabrikalarning ishchilari tashkil

etgan (kasb va hunar-texnika bilim yurti yoshlari asosiy kogorta hisoblangan). Ammo, jamiyatda bo'shliq paydo bo'la boshlaydi. Ish o'rinlari kamayib, xususiy sektor pala-partishlik bilan rivojlanishga o'tadi. Aniq bir tizimga solingan mafkuraviy g'oyaning yo'qligi siyosiy va diniy qarashlarda turli chegaralarni keltirib chiqaradi.

Avlodlar vorisiyligi tizimi izdan chiqa boshlaydi. Jamiyatda "otalar va bolalar" dunyoqarashida qaysidir ma'nodagi qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi [9].

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklari ichida harakat qilgan yoshlar kogortasi jamiyatda muallaq holatda qolib ketdi. Ushbu avlodlarga nisbatan ba'zida "o'tish davri" avlodlari, yana ba'zi qarashlarda "yo'qotilgan avlod" atamallari ham ishlatila boshlandi. Ushbu kogortada ishbilarmon va tadbirkorlar qatlami deyarli paydo bo'lmadi. Vaholanki, shu paytda eng ko'p qaror va qonunlar shunga yo'naltirilgan. Dunyoqarash va tafakkur tarzida hamon davlat sektorida xizmat qilish tasavvuri ustuvorlik qilib turardi.

Tahmin qilish mumkinki, buyuk ming yillikning so'ngi o'n yilligi davomida yosh kogortasida kasbiy salohiyat muvozanati va bozor sharoitlariga mos bo'lgan kasblarni shakllantirish shkalasi o'rtasidagi tushunmovchiliklar natijasida ko'p narsalar yo'qotildi. Aynan shu omillar "yo'qotilgan avlod" dilemmasini shakllantirdi. Boisi, shu davr kogortasining imkoniyatlari yomon emasdi, juda ko'pchilik ikki tilda erkin gapirib, yoza olardi. Sifatli injenerlik va texnik bilimlarga ega yoshlar miqdori ham ko'pchilikni tashkil etar, ammo unga mos korxonalar va tashkilotlar hamkor tashkilotlarning o'zaro aloqa va munosabatlaridagi ziddiyat va kelishmovchiliklar hisobiga geometrik progress tezligida bankrotlikka uchrardi. Shuning uchun ham bu davr yoshlari kogortasini ilmiy manbalarda ko'pincha o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olmagan o'tish davri avlodlariga nisbat qilinadi.

Mazkur generatsiya tahlil etilar ekan, uning to'liq sovet tuzumi sharoitida shakllanganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Ilk bor ular o'z ota-onalari erishgan qaysidir darajadagi moddiy farovonlikni yodlarida saqlab qoladilar. Ushbu sotsial xotira tufayli butun hayotlari mobaynida intilib yashagan qadriyatlarini shu davrga qiyoslab, undagi o'ziga xos "barqarorlik"ni izlashlari, ikkilanishlarga sabab bo'laveradi. Shu boisdan ham 2000-yillarning kogortasini tarixiy o'zgarishlar ta'sirida ifodalangan "ikkilanishlar" ijtimoiylashuvi mazmunida qabul qilingan. Ikkilanish sindromi hayot tarziga va u orqali ishlab topilgan daromadlarga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Shu davrdan boshlab butun jamiyat bo'ylab "migratsiya" jarayonlari faollasha boshlaydi. Ko'pchilik yoshlar ijtimoiy hayotda mavjud daromadlarini yo'qota boshlaydilar, yoki u o'z-o'zidan kamaya boshlaydi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, mazkur kogorta guruhlarda yosh darajasi kattaroq darajaga chiqadi, ya'ni avvalgi davr kogortalari singari 18-30 yosh emas, balki 18-40 va undan ko'p ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Bu davr "ijtimoiy mobillik", yoki "harakatlanish" davri deb nomlanib, undagi kogortalarga zamonga moslasholmaganligi sababli "umidi so'ngan" avlodlar deb ham yondashiladi. Bu xususda tadqiqotchi L.Xaxulina "shu o'n yilliklar davomidagi barcha yosh darajalari ichida "yetilgan yoshlar"ning kogortasi vakillari ichida o'tmish qadriyatlarini "sog'inish", yoki unga "qaytish" kayfiyati sezilarli ravishda oshgan [10].

Hozirgi vaqtda bu kogorta o'z hayot yo'lining eng faol bosqichini bosib o'ttib bo'ldi. Bugungi kunda ushbu avlodning ijtimoiy-siyosiy sohalardagi aktor sifatleri "bolalikni eslash", ba'zida "qo'msash" xususiyatlari bilan o'rin tutadi. Shu boisdan ham, ushbu generatsiya ijtimoiy sohani jiddiy o'zgartirishga har doim qodir bo'lgan kuchli innovatsion potensialga ega emas. Xususan, o'zga yosh davrlarining kogort guruhlari bilan qiyos qilganda, ularda mulkchilikning davlat shakliga (yerga mulkchilik shakli singari) oriyentatsiyasi yuqoriligicha qolmoqda. O'zlarining siyosiy elektoral xatti-harakatlari shakllari bo'yicha ham faollik darajasi kam ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Umuman olganda, qayta qurish avlodlari nomi bilan sotsiologik manbalarda ifodalangan kogorta yoshdagilar guruhi o'z xatti-harakatlari namunalari bo'yicha muayyan innovatsion potensialni o'zida mujassam etishdan ko'ra, ko'proq o'zlaridan avvalgi o'tgan avlodlarning "hayotiy lavha (pozitsiya)"laridagi loyihalarni takrorlashni xush ko'radi.

Ikkilanuvchi yoshlar kogortasi ni islohotlar boshlangan davr yoshlari sifatida olib qarab, ularni yosh avlod doirasida alohida guruhga ajratish mumkin. Xronologik jihatdan ushbu kogorta XX asrning 70-yillarda tug'lganlarga taalluqlidir. Ikkilanuvchi avlodning ilk ijtimoiylashuvi davri 10-15

yoshgacha kechib, sobiq ittifoqning qayta qurish jarayonlariga (1985-90-yy.) to'g'ri kelib, ilmiy manbalarda "otalar tarixiy merosi"ni keskin va ayovsiz tanqid ostiga olish deb ham nomlanadi. Mazkur kogorta uchun asosiy ijtimoiylashuv omili sifatida ommaviy axborot vositalari (OAV) faoliyati va sohasida vaziyatning tubdan o'zgarishi, axborot senzurasini to'xtatilishi, mavjud tuzumning o'tmishi va bugungi kundagi tizimiga nisbatan tanqidiy munosabatlarning keskin kuchayib borishi sabab bo'ladi. Yangi avlod uchun ijtimoiy hayot sahnasida noformal muloqot doirasi shakllanib, oilaviy o'zaro suhbatlar, tengdoshlari bilan bo'ladigan har qanday muloqotlar tanqidiy munozaralar bilan yakun topardi.

Ikkilamchi kogort eng ta'sirga beriluvchan, hissiyotga moyil avlod sifatida tarixga kirib, u tezkor (intensiv) va maqsadga yo'naltirilgan turli mafkuraviy ta'sirlar o'tkazishning bosh obyektiga aylanib qoladi. Boshqa tomondan qaralsa, ushbu kogortaning shakllanish jihatlari kechadigan ta'lim institutining mavjud mafkuraviy tizimga bo'sundirilgan inersiyasi ahamiyatini yo'qotib bormoqda edi. Shu bilan birga 80-yillarning oxirgi o'n yilligiga kelib maktablardagi pioner va komsomol tashkilotlariga bo'lgan ishonch belgilariga nisbatan ikkilanish bilan qarash boshlandi [11].

Ota-onalar vorisiyligi bo'lgan an'anaviy qadriyatlar (paternalizm, umumjamoaviy manfaatlar yo'lida birlashish, o'zlikdan kechib jamoa manfaatlariga xizmat qilish va shu k.)ga nisbatan nigilistik qarashlarning kuchayib borishi, shuningdek, nigilistik munosabat tufayli barcha qadriyatlarga nisbatan keskin munosabatdagi yondashuvlar 90- yillarning o'zgarish xususiyatlarini tashkil etadi. 90- yillar boshidagi ushbu kogorta 15-20 yoshdagi avlodlarni o'ziga qamrab olgandi. Otalar qadriyatlariga nisbatan keskin norozilik, o'tmishni noto'g'ri kechganligi, barcha narsaning asosi iqtisodiy me'zonlar ekanligi to'g'risidagi qarashlar avj olar ekan, yaxshi yashashning bosh omili sifatida tadbirkorlik bilan shug'ullanib, tezlikda boyib ketish asosiy qadriyatga aylandi. Yangi iqtisodiy qadriyatlarga bo'lgan moyillik shu davr kogortasini uzoq yillik ta'lim olish rejalaridan voz kechishga olib keldi. 1990-1995 yillarda oliy ta'lim olishga bo'lgan intilish mavqesi keskin tushib ketdi. Universitetlarga kirish uchun konkurslar bo'lmay qoldi. Butun bir tizimda ulkan kaos, ya'ni bo'shliq hukm surardi [12].

Yoshlar oliy ma'lumot olish o'rniga tadbirkorlik va mehnat bozorlariga borishni o'zlariga ma'qul ko'rardilar. Savdo va tijorat mehnat bozorida to'liq ustunlikni qo'lga kiritadi. Horij mamlakatlariga yo'llarning ochilib ketishi, doimiy taqchil mahsulotlarni gohida sifatli, gohida sifatsiz holatda iste'mol bozorlariga olib kiradi. Bu davr o'ta tartibsiz, qonunlarning ishlash tizimi izdan chiqib ketgan, turli xil valyutalar bilan savdo qilinadigan ijtimoiy makonga aylanib qolgandi. Bir tomonda boyluk orttirish vasvasasi, ikkinchi tomonda turli xil diniy tashviqot va missionerlik avj olib ketgan shart-sharoitlar ichida shakllangan kogorta paydo bo'ldi. Keyinchalik ushbu davrdagi paydo bo'lgan mafkuraviy bo'shliq uchun kogortaning ko'pchiligi "aybsiz aybdor"ga aylanib qoldi. Aslida, bu davr "ikkilanishlar davri" sifatida tarixda qoldi.

Mazkur davr yoshlari kogortasi haqidagi mavjud ma'lumotlarni umumlishtirsak, uni nigilistik voqelik deb atash mumkin. Chunki bu davr ota-onalar vorisiyligini ta'minlovchi postmaterialistik qadriyatlarni va uning oliy ta'lim olishga qaratilgan strategik mavqeni butunlay inkor etardi. Yosh avlod kogorta sifatida asosan iste'mol bozori va daromad borasida yutuqli vaziyatlarga ega bo'ldi. Garchi u bozor munosabatlariga yaxshi moslasha olgan bo'lsa-da, ma'naviy va ta'lim innovatsiyasini deyarli o'zida shakllantira olmadi. Ushbu kogortaning bu kamchiligi keyinchalik yillar kesimida avlodlar almashinuvi jarayonlariga ham juda katta salbiy ta'sir o'tkazdi.

Yoshlar kogortalari orasida alohida o'rin tutadigan yana bir guruh – sotsiologik manbalarda "X" (iks) avlod deb nom olgan guruhga e'tiborni qaratamiz. Bu kogorta 70-yillar oxiri, 80-yillarning boshlarida tug'ilganlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu avlodning formativ davri 90-yillardagi iqtisodiy islohotlar davriga to'g'ri kelib, ushbu islohotlar natijasida davlat va ijtimoiy tizim sifat jihatdan o'zgacha shaklga o'tib bo'lgandi. Mazkur avlodning vakillari shu vaqtda 20 yoshdan oshmagan bo'lib, ularning ko'pchiligi qaysidir bir ta'lim tizimi doirasi harakat qilardi.

"X" avlod guruhi fanlar tizimida mutaxassislar tomonidan ayni shu paytdan boshlab nomlana boshlandi. Unga ko'ra shu davrdan boshlab har 15-20 yillik faoliyat doirasida yana "Y", "Z", "G" avlodlarni farqlash ilgari surildi. Guruhlarni tafsiflashda aniqlangan tendensiyalar hamda oldingi avlodlardan keyingisining imkoniyatlaridagi farqlarning shakllanishi bilan bog'liq umumiy shart-

sharoitlar konturi belgilandi.

Har bir avlodning umumiy, hamda tahminiy qiyofasini tasvirlash uchun taniqli fransuz tadqiqotchisi Attias-Donfu (Attias-Donfut)ning metodik jihatdan ilgari surilgan yondashuvlarini qo'llash asos qilib olinadi. A. Donfu shunday yozadi: "Yashab qolish uchun muhtoriyatga intilish va o'zidan avvalgi avloddan mustaqil bo'lishga harakat qilayotgan har qanday yangi avlod shakllanishiga tabiiyki qarshilik qilish va ziddiyatga borish xos xususiyat hisoblanadi. Shu tariqa avlodlar to'qnashuvining dastlabki ijtimoiy konturlari namoyon bo'ladi. O'zaro munosabat va qarshi munosabatlar avvalgi avlod tomonidan belgilansada, baribir ushbu munosabatlar oxir-oqibatda o'z o'rniga kelayotgan yangi avlodning o'z shaxsiy qiyofasini aniqlash va shakllantirish uchun talab etilgan butunlay yangi, o'zgacha fikrlaydigan kishilar guruhini paydo qiladi" [14].

Tabiiy savol tug'ilishi mumkin. Har bir avlodning o'zidan avvalgisidan ajratib turadigan eng asosiy farq chegarasi qayerda chiziladi? Mazkur savolga yosh kogortasining ijtimoiylashuvi kechgan tarixiy va davriy shart-sharoitlar inobatga olinadi. Masalan, o'tgan asrning 90-yillaridagi butkul vayron bo'lgan sovetlar ta'limi tizimi bir avlodning ikkinchisi bilan tutashtirishi kerak bo'lgan vorisiylikka butunlay barham beradi. Anomiya holatiga tushib qolgan mamlakat uzoq yillar davomida ilk bor bo'lajak avlodlarning shakllanishi jarayoniga o'zining muntazam davomiylikka ega bo'lgan mafkuraviy ta'sirini o'tkazolmay qoldi. Ta'lim tizimi ilgari aniq yo'nalishda ta'sir o'tkazishning umumdavlat tizimidan, endilikda o'sib kelayotgan avlodlarda ijtimoiy tengsizlikni shakllantirish tizimiga aylanadi.

Natijada, davlat o'z shaxsiy amaliyotida ilk bor ikki ijtimoiy avlodning potensial imkoniyatlari va zaif tomonlarini qiyoslay olish imkoniyatiga ega bo'lmagan birinchi generatsiyani yuzaga keltirdi. Shuningdek, tarbiyaviy masalalarda ota-onalar tajribasi (avvalgi avlodlarning oilaviy tajribasi ham) yangi tarixiy sharoitlarda o'z qiymatini yo'qotib, vorisiylikni takrorlash uchun yaroqsiz holga kela boshlaydi. Sotsiologiyada ushbu mavzu "Otarlar va bolalar muammosi" sifatida fanga kirib keladi. Bu esa o'z navbatida avlodlarga nisbatan "o'tmishga" suyanish yoki uni "qo'msash" tendensiyasini mavjud generatsiyaga amalda qo'llab bo'lmashligini ko'rsatdi [15].

XULOSA

Ushbu maqolada biz tomonimizdan yosh darajasi kogortalarining qiyosiy tahlili uchun uchta sifatijihatdan bir-biridan farq qiladigan bir tarixiy davrning avlodlaridagi ijtimoiy imkoniyatlari tahlilini berdik. Birinchi avlodga XX asrning 60- yillarida tug'ilgan, ijtimoiy faollik darajasi tufayli "Qayta qurish avlodi" deb nomlangan yosh kogortasi bilan izohlanadi. Keyinchalik ushbu avlodning har 10 yil ichida yetuklik yoshiga kirib borgan sari (bugungi kunda ushbu avlod vakillari 55-65 yoshlardagi kishilarni tashkil etadi), ularning hayot pozitsiyalarida bosib o'tgan yo'llari ijtimoiy qonuniyatlari haq 10 yillikning ichida sodir bo'lgan ijtimoiy-tarixiy voqealarga qarab o'zgarib bordi.

Fikrimizcha, shaxs sifatidagi ijtimoiylashuvi asosan sotsialistik tuzum loyihalari ta'sirida bo'lib o'tgan, ammo keskin tarixiy o'zgarishlar natijasida ikkinchi "kechki ijtimoiylashuv" bosqichiga o'tishga majbur bo'lgan bo'lgan bu avlod vakillari tanqidiy ruhiyat bilan bog'liq sindromni o'z boshidan o'tkazgan yagona formativ davr avlodi bo'lib qolishi mumkin. Keyinchalik ham mazkur kogorta bazasida "yangi avlod" na'munasi paydo bo'lmadi. Chunki, ikkinchi va uchinchi avlodlar ham shu tarixiy davrni qisman boshidan kechirgan bo'lsa-da, ular zaiflashib borayotgan an'anaviy sotsialistik loyihaga deyarli tegishli emasdilar, degan ilmiy gipotezani ilgari surishimiz mumkin.

Avlodlar generatsiyasi bilan bog'liq ilmiy loyihalarni ilgari surishdan asosiy maqsad, ulardagi umumiy birlashtiruvchi ijtimoiy xususiyatni ifodalovchi "jamoaviy biografik shartlar yo'nalishi"ni aniqlab olish talab etilardi. Umuman olganda, zamonaviy jamiyatda avlodlar birlashishi va differentsiatsiyalashuvi muammolarini muhokama qilish natijasida shunday xulosa qilish mumkin:

a) bugungi davrimizning katta yoshdagi avlodlari yagona an'anaviy sotsialistik loyiha doirasida shakllangan bo'lsalar-da, yangi davr qonuniyatlariga mos tarzda hayot kechirishni davom ettirmoqda;

b) 2000 yillardan boshlab avlodlar vorisiyligini ta'minlash uchun olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida avlodlar o'rtasidagi ziddiyat, to'qnashuv yoki qarama-qarshiliklar birining ikkinchisini to'liq inkor etish uchun imkoniyat qoldirmadi;

v) o'zlarining tarixiy va davriy tuzumlardagi ijtimoiy qonuniyatlardagi farq va tafovutlarga qaramay, mavjud milliy va diniy qadriyatlar an'anaviy mazmun kasb etib, mental tafakkur doirasida birlashish imkonini berdi;

g) fikrimizcha "Ota va bolalar muammosi" har bir davrga xos bo'lib, yosh kogortalari doirasidagi ilk ijtimoiylashuvlar, hamda yoki formativ tarixiy davrlarning o'zgarishlari ta'sirida qaysidir ma'nodagi ijtimoiy to'qnashuv, ziddiyat va inqirozli vaziyatlarga sabab bo'laveradi;

d) o'tmishni qo'msash, "ortga sog'inib (nostalgiya) qarash" kayfiyati ilmiy nuqtai nazardan olganda ilk ijtimoiylashuv bilan bog'liqligini inobatga olish kerak bo'ladi. Shaxs jamiyatga ijtimoiylashib borar ekan, uning uchun ilk bolalikdagi ijtimoiylashuv doimiy yodda qoluvchi holatligini unutmaligimiz kerak bo'ladi. Ushbu omilni hisobga olmay tarixiy o'zgarishlar tufayli yangi ijtimoiy loyihalarni ilgari surilishida avvalgi avlodlar yo'li uchun ilmiy hisobga olmasdan o'tkazilgan har qanday ta'sir kuchi, mavjud jamiyat uchun jiddiy va hattoki xavfli omilga aylanishi mumkin;

ye) har bir avlodning ijtimoiy guruh sifatidagi dastlabki ijtimoiylashuv davri tajribasini sotsiologik o'rganish asosida sifat jihatidan yangi avlod uchun vorisiylikka xizmat qiladigan na'munaviy ijtimoiy loyihalar va xatti-harakatlar pattern (hayotimizda tez-tez duch kelinadigan ijtimoiy muammolarning loyihalashtirilishi)larini ishlab chiqish va shakllantirilishi talab etiladi;

j) yangi avlodlarning o'zini namoyon etishi uchun o'z salohiyatidan tashqari, uni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan ijtimoiy imkoniyatlarni yaratib berish lozim bo'ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Каланова С. Жамиятда авлодлар алмашинуви жараёнларининг социологик таҳлили. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2018, 248 бет.С. 7.
2. Гегель Г. Философия природы / Г.Гегель. – Соч.: М.-Л., 1934. – Т.2. – С. 507.
3. Мид М. Культура и преемственность. Исследование конфликта между поколениями / М. Мид // Культура и мир детства. Избр. произв. / Пер. с англ. – М., 1988. – С. 359.
4. Кондратова Г.А. Человеческое измерение истории/Г.А.Кондратова. – Архангельск, 2007. – 310 с.
5. Платон. Государство собр. соч., кн.8. / Платон. – М., 1971. – С. 545.
6. Коровицына Н.В. Среднее поколение в социокультурной динамике Восточной Европы второй половины XX века. – М., «Логос», 1999.
7. Левада Ю. (ред.) Советский простой человек. Опыт социального портрета на рубеже 90-х. – М., Интерцентр, 1993.
8. Левада Ю. Координаты человека. К итогам изучения «человека советского». // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2001, № 1, – С. 7-30.
9. Каган М.С. О структуре современного антропологического знания / М.С. Каган // Сб.: Очерки социальной антропологии. – СПб.: Петрополис, 1995. – С. 37.
10. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: «Полит. лит-ра», 1992. – С. 297-302.
11. Каланова С. Жамиятда авлодлар алмашинуви жараёнларининг социологик таҳлили. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2018. – 248 б.
12. Сорокин П. Общая социология // Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество / Общ. ред., сост. и предисл. Ю.А.Согомонов. – М.: Политиздат, 1992. – С.31.
13. Суханов А.П. Информация и прогресс / А.П.Суханов. – Новосибирск: Наука, 1988.
14. Тоффлер, А. Футурошок / А.Тоффлер. – СПб.: Лань, 1997. – 64 с.
15. Гуссерль Э. Идеи к чистой феноменологии и феноменологической философии. Т. 1.[3] (недоступная ссылка с 12-05-2013 [2958 дней]) – М.: ДИК, 1999. 2-е изд.:пер. с нем. А.В.Михайлова, вступ. ст. В.А.Куренного.— М.:Академический проект, 2009.

15. Семенова В.В. Современные концептуальные и эмпирические подходы к понятию «поколение» // Россия реформирующаяся: Ежегодник - 2003 / Отв. ред. Л.М. Дробижева. – М.: Институт социологии РАН, 2003. С. 213-237. [электронный ресурс].

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000